

“YaShIL MAKON” LOYIHASI SO'X TUMANIDA



“YaShIL MAKON” LOYIHASI SO'X TUMANIDA

Tumanimizda "yashil makon" umumimilliy loyihasini amalga tatbiq etish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mahalla fuqarolar yig'inlarida olib borilayotgan ishlar bunga yorqin misol bo'la oladi.

- Yangiariq mahallasida ayni kunda saxovatpesha tadbirkorlarimiz ko'magida keng qamrovli obodonlashtirish va qurilish ishlari olib borilyapti. Mahalla qabristonida barpo etilayotgan shiyponlarning qad rostlashida barcha mahalla ahlining hissasi bor. Mahallada har bir ish hashar yo'li bilan amalga oshiriladi, - deydi Yangiariq mahalla fuqarolar yig'ini raisi Amirali Safarov.

Shuningdek, qabristonning hududiga terak qalamchalari ham ekilyapti. Bu ishda jamoatchilik sifatida ishga qabul qilingan xotin-qizlar ham o'z xohishlari bilan yaqindan yordam berishayotir.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-04-11 13:23:21